

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM BAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

BOSHLAHG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**“Himoyaga tavsiya etildi”
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani _____ dots. B. Jo‘rayev
“__” _____ 2013 yil**

Pedagogika-psixologiya fakulteti

5141600- “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” yo‘nalishi bitiruvchisi

Choriyeva Madinaning

**“Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy
qadriyatlar ruhida tarbiyalash” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: доц. N.Oripova

Qarshi – 2013

M U N D A R I J A:

Kirish.....3

I-BOB. “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida

1.2. “Go‘ro‘g‘li” dostonining yaratilishi va uning turkumlari

1.3. “Go‘ro‘g‘li” dostoni - o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash manbai sifatida.....

II-BOB. “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Doston vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mavjud ahvoli.....

2.2. Doston vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari

Umumiy xulosalar.....

Adabiyotlar ro‘yxati

K I R I S H

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, erkin jamiyatni–adolatli fuqorolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ulug'vor maqsadlaridan biri sifatida belgilab qo'yildi. Zotan mamlakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat prinsiplariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo'lmog'i lozim. Fuqorolik jamiyati o'z mazmun mohiyatiga ko'ra–barkamol fuqorolardan ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Davlatimizning ijtimoiy –iqtisodiy, madaniy taraqqiyti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezident I.A.Karimov qayd qilganidek, bu negizlar:

- “-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik”dan iboratdir.

Mazkur ma'naviy –axloqiy negizlar zaminida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga, respublikamizning barcha fuqarolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishga erishish yotadi. Chunki shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini o'stirmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish, milliy istiqbol mafkurasini to'la-to'kis yaratish mumkin emas.

Mavzuning dolzarbligi: Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy meros o'tmishning yutug'i. Uni to'la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashga o'zida kuch topa oladi.

Demak, milliy qadriyatlarni o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a'zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Mustaqil Respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; o'zbek xalqi asrlar moboynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab asrash va kelgusi avlodlarga tadbirlarini ko'rish; qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san'atni bilish va rivojlantirish; o'zbek tilini taraqqiy ettirish; boshqa xalq vakillarini hurmatlash kabi shartlarni amalag oshirish yotadi.

Insoniyat paydo bo'lgandan to bugungi kunga qadar insonlar ikkita qadriyatga amal qilib yashaydi, ya'ni - axloqiy va huquqiy qadriyatlar. Huquqiy qadriyatlar davlat tomonidan qat'iy o'rnatilib, belgilab qo'yiladi. Axloqiy qadriyatlar esa jamiyatda o'rnatilmaydi ham, belgilanmaydi ham, balki, jamiyatdagi shaxslar ularga ongli ravishda o'z e'tiqodlari va dunyoqarashlari asosida amal qiladi. Bizning xalqimiz qadimdan, har qanday davrda ham, ko'proq axloq qadriyatlarga amal qilib yashaydi. Bu bizning yutug'imizdir. Chunki, fuqorolik adolatli jamiyatni qurishimizda uuqorida aytib o'tilgandek, axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega shaxslar orqali quramiz.

Shunday ekan, hayotimizning ajralmas qismi va mazmuni bo'lgan axloqiy qadriyatlarga rioya qilishimiz ichki ehtiyojimiz bo'lishi bilan birga bugungi kundagi hayotimiz mohiyatini begilab beruvchi mezon hamdir.

Inson hayotida axloqiy qadriyatlar katta ahamiyatga ega ekan, ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish muruvvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida royobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, insofililik, xushmuomalilik, boodoblik, kamtarlik singari axloqiy qadriyatlar ayniqsa diqqatga sazovor.

Xalqimizning buyuk axloqiy qadriyatlari uning og'zaki ijodida, jumladan, dostonlarida ham saqlanib kelinmoqda. Bu borada o'zbek xalqining sevimli dostoni "Go'ro'g'li"ni alohida ta'kidlash joizki, unda biz izlagan axloqiy

qadriyatlarining barchasi mujassamdir. Ayniqsa, dostonidagi axloqiy qadriyatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirish, undagi barcha ezgu g'oyalarga amal qilishni o'rgatishimiz lozimki, bu o'z navbatida kelajakda barkamol insonlarni shakllantirish ishlariga hissamizni qo'shish bilan barobardir.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishda axloqiy qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari, "Go'ro'g'li" dostonining mazmuni va mohiyati; doston vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yo'llari, usullari haqidagi fikr yuritishga harakat qildik.

Tadqiqotning maqsadi – "Go'ro'g'li" dostoni vositasida o'quvchilarni ma'naviy- axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishga oid metodologik tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti – doston vositasida o'quvchilarni ma'naviy- axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash жараёни.

Tadqiqotning predmeti – doston vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, vositalari, yo'llari.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan kelib chikadiki, agar:

- o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslansa;
- "Go'ro'g'li" dostoni o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash manbailigi atroflicha tahlil qilinsa;
- doston vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning holati mavjud ahvoli o'rganilsa;
- doston vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususyatlari ochib berilsa, kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Qo'yilgan maqsad va ilmiy farazga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

Birinchidan, "Go'ro'g'li" dostoni vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari o'rganish, tahlil qilish;

Ikkinchidan, doston vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mavjud ahvolini o‘rganish;

Uchinchidan, o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning vositalari va yo‘llarini ishlab chiqish;

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. “Go‘ro‘g‘li” dostoni asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning tarixiy asoslari.
2. “Go‘ro‘g‘li” dostoni asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari.
3. Doston asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yo‘llari va usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

1. “Go‘ro‘g‘li” dostoni asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammosi nazariy jihatdan asoslandi.
2. Doston asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlari.
3. Doston asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida pedagogika fani “Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar, pedagogik g‘oyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan boyitildi. Ushbu metodika va nazariy yondashuvlardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, darslik mualliflari, boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston

Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi”, Pedagogika fani konsepsiyasi, Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi, Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standartlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning shaxs kamoloti, yoshlarni vatan va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta’lim tizimi, shu jumladan, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish haqidagi nazariy qarashlari, yondashuvlari, tarixiy-ma’naviy meros namunalari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, o‘quv metodik majmualar.

Tadqiqot metodlari:

1. Mavzusiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.
2. Kuzatish,
3. Test, og‘zaki so‘rovnoma.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Mazkur tadqiqot ishi kirish, ikki bob, besh paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 49 betni tashkil etadi.

I-BOB. “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY- AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagogok muammo sifatida

Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo‘lgan eng dastlabki axloqiy-ma’naviy tasavvurlari xalq pedagogikasi, qadimiy yozma manbalar («Avesto», «Urxun bitiklari», «Irq bitigi») va mustoz adabiyot vositasida avloddan-avlodga o‘tib, ularning ba’zi birlari umuminsoniy, milliy-ma’naviy qadriyatlarning paydo bo‘lishi hamda shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajarib kelgan. Islomgacha bo‘lgan qadimiy tarbiya aqidalarining asosiy maqsadi insonni ruhan va jismonan yovuz ruhlardan xalos etish va saqlash, ularda yaxshilikning doimiy g‘alabasiga ishonch hissini shakllantirish, qalb pokligi, sihat-salomatlikka da’vat etuvchi dastlabki tasavvurlardan iborat bo‘lgan.

O‘sha davrlarga xos bo‘lgan insonning ruhiy-ma’naviy qadriyatlarining ibtidoiy negizlari haqida Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy madaniy yodgorliklaridan biri zardo‘shiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da yetarlicha ma’lumot beriladi. Sharq xalqlarining muhim qadriyatlari hisoblangan yaxshilik, hojatbarorlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, halollik, poklik va boshqalar tarbiyaning eng oddiy usuli: savol-javob, pand-nasihat, namuna shaklida xalq o‘rtasida targ‘ib qilingan. Zardo‘shiylik ta’limotida sog‘lom tanda sog‘ fikr bo‘ladi, degan aqida asosida ruhiy sog‘lomlikka erishish g‘oyasi ilgari suriladi. O‘quvchi shaxsini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda «Qur’on» va «Hadis»larning alohida o‘z o‘rni bor. Hadislar sharq xalqlarining qimmatli ma’naviy qadriyati bo‘lib, u yettinchi asrda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida raydo bo‘ldi. Ular asrlar davomida yoshlarni ma’naviy shakllantirishda ota-onalar, masjid, madrasa va maktablarda tayanch qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Hadislarda xalq tajribasida sinalgan ezgu g‘oyalar kuchaytiriladi, ular nasihat va talab shaklida xalqqa yetkaziladi, xalq g‘oyalariga zid xislatlar esa majoziy

jihatdan boʻrttiriladi, yomon oqibatlardan ogoh etiladi. Bunday hollarda mubolagʻali usul orqali hadislarining tarbiyaviy taʼsiri kuchaytiriladi. Hadislar zaminida kishilarninsh eʼtiqodi va tasavvurlari, olamni bila borish vaidrok etish darajasi yotadi. Hadislar oʻziga xos taʼlimiy va tarbiyaviy xarakterga ega boʻlgan ijodiy janr boʻlib, boshqa adabiy tur va janrlardan oʻzining tarbiyaviy taʼsir doirasi, hajmi, ifoda xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hadislarda «savob» mazmunini ochib beruvchi fazilatlar: ota-onaga, keksalarga hurmat, ilmi boʻlish, hamkorlik, doʻstlik, insonparvarlik. Ayollarni qadrlash, saxovat, rostgoʻylik, ifaat, nonni eʼzozlash, diyonat, rahm-shafqat, eʼtiqod, mehmondoʻstlik, xayr-ehson, tozalik, sabr-qanoat, ishonch va boshqalar shaxs maʼnaviy madaniyatini shakllantiruvchi axloqiy-maʼnaviy omil tarzida namoyon boʻladi. Inson axloqi aqlga, xulq va hatti-harakati esa ilm-fanni oʻrganishga va maʼrifatga asoslangandagina maʼnaviy kamolotga erishadi. Sharq mutafakkir allomalarining fikricha insonparvarlik gʻoyalarining amalga oshishi, maʼnaviy-axloqiy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va maʼrifatli boʻlishga bogʻliq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulugʻladilar, jamiyatning barcha aʼzolarini ilm egallashga chaqirdilar, ilmning inson maʼnaviy hayotida tutgan oʻrnini yuqori baholadilar.

Farobiy oʻzining «Baxt saodatga erishuv haqida», «Fanlarning tasnifi».” Falsafani oʻrganishdan oldin nimani bilish kerakligi” kabi koʻplab asarlarida insonning maʼnaviy rivojlanishi ilm-maʼrifatga bogʻliqligini taʼkidladi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni oʻrganishning kaliti ekanligini alohida taʼkidlaydi. Ilm-maʼrifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir.

Al Xorazmiy esa insonning maʼnaviy-axloqiy qarashlari mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan gʻoyani elgari surdi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy butun umri davomida, barcha asarlarida insonning guzal odobi, taʼlim-tarbiyasi xaqida fikr yuritadi. Uning qay bir asariga nazar tashlamaylik barkamol insoniylik fazilatlarini ulugʻlanadi. Jumladan, mutafakkirning «Maxbubul-kulub» nomli asarida odob va axloq, tavoze,

insonlarga yaxshilik kilish, shu bilan birga insonlarda mavjud bulgan yomon xulqlar: o'ziga bino quyish, takabburlik, yolg'on so'zlash, nafs balosi kabilar tugrisida fikr yuritadi. Shoir odobli-axloqli kishini quyidagicha ta'riflaydi:

«Adabli, agarchi barcha kishilardan yaxshidir va hamma xaloyiqdan yoqimlidir, ammo uluglardan ko'ra yaxshiroq va qo'li ustunlardan yoqimliroqdir. Adabli o'z tengqurlari orasida bir-biriga maqtanarli bo'ladi, kattadan kichik o'rtasida yaxshi ko'rinadi. Saxiylik qilmay elni shod qiladi va biror narsa xadya qilmay kishini g'amdan ozod qiladi. Adab kichik yoshdagilarni uluglar duosiga sazovor etadi va u duo barakoti bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini uluglar kungliga soladi va u muxabbat kungilda abadiy qoladi...» 1

Alisher Navoiy yosh avlodni kelgusida ma'naviy-axloqiy fazilati yuksak fazilatli qilib yetishtirish, ularni yoshligidan boshlab qunt bilan tarbiya qilish kerakligini uqtiradi. O'zbek xalqida ota-onaga bulgan hurmat, e'tiqod, uni uluglash hamisha yuqori darajada bo'lib kelgan. Shoir ham Vatanga muhabbatni, ota-onaga, insonlarga muhabbatni chin insoniylikning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb biladi:

Boshni fido ayla ato koshiga,
Jismni kil sadko ano boshiga,
Ikki jaxoningga kilarsan fazo,
Xosil et ushbu ikkisin rizo.
Tunu-kununga aylagali nurposh,
Birisin oy ayla, birisin kuyosh.
Suzlaridin chekma kalam tashkari,
Xatlaridan kuyma kadam tashkari,
Bulsun adab birla bori ximmating,
Xam qil adab «dol» kabi qomating.

Navoiyning yana bir zamondoshi va dusti Abduraxmon Jomiydir. U juda kup asarlar muallifidir. Jumladan uning «Baxoriston» nomli asarida ta'lim va tarbiyaga keng urin beriladi. Jomiy bu asarida chin insoniylikni uluglaydi. Shoir

vafoni, sadokat va dustlikni, adolat va xakikatni, saxovat va muruvvatni, iymon va e'tikodni axlokli kishilarga xos fazilat deb biladi. U xakikiy duslikni xamma narsadan ustun kuyadi:

Dushmanga kursatgil dustlikni, xargiz
Adovat tigidan tilinmas pusting
Adovat kursatma dustlarga aslo
Alamidan dushman bulmasin dusting.³

Jomiy asarlarida uz davrining xakchil goyalari insonparvarlik, insonning insonga tobe bulmasligi, ilm-ma'rifatga intilish, odob, tavoze, soflik, tugrilik uluglanadi va boshka kup insoniy fazilatlar xakidagi fikrlar xikoyatlar, masallar orkali talkin kilinadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Sharq mutafakkirlari o'zlarining ko'p qirrali ijodlarida va ilmiy faoliyatlarida kishilarning talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelgan islom dini va uning aqidalarini hurfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rmadilar, balki jamiyatning, insoniyat ma'naviy madaniyatining rivojlanishining muhim vositasi sifatida ularga munosabatda bo'ldilar. Sharq mutafakkirlari didaktik xarakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl-usul va vositalarini bayon etdilar. Mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar.

Sharq allomalarining bu kabi shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ilg'or fikrlaridan foydalanish I.A.Karimov asarlarida batafsil yoritilgan. Shuningdek, o'tmish madaniy merosdan ta'lim-tarbiyani jarayonini takomillashtirish, yangilash, insonparvarlashtirish sifatida foydalanish ham prezident asarlaridan olg'a surilgan g'oyalardan biridir.

1.2. “Go‘ro‘g‘li” dostonining yaratilishi va uning turkumlari

Mustaqillik tufayli Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, shu yangilanayotgan jamiyat fuqorasini tarbiyalash muhim vazifa sanaladi.

Bu vazifa o'z navbatida ta'lim-tarbiya mazmunini yangi talablar asosida o'zgartirishlarni, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni taqozo etadi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari namunalari qadimiy tarixga ega. Bu ulkan xazina namunalaridan biri bo'lmish dostonlar hozirga qadar kishilarni Vatanga, ona xalqiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda yetakchi manba bo'lib xizmat qilmoqda. Oliyjanob g'oyalarni betakror badiiy shakllarda ifodalash xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish dostonlar, estetik tafakkurining yetakchi tamoyillaridan hisoblanadi. Shuning uchun biz xalq og'zaki ijodini milliy va ma'daniy qadriyat deb bilamiz, ularni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga intilamiz. O'zbekiston Prezidenti I. Karimov ta'kidlab aytganidek, “Xalqning ma'daniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi”¹

Haqiqatdan ham xalqning boy og'zaki merosi namunasi bo'lgan dostonlar asrlar osha bizning hozirgi talab va ehtiyojlarimizga, mustaqil yurtimiz fuqoralarining ma'naviy tashnaligiga hozirjavob sarchashmalik vazifasini o'tamoqda. Bu narsa yuqorida aytilganidek, ulardagi go'zal va oliyjanob g'oyalar hamda maftunkor badiiyat tufaylidir.

O'zbek xalq dostonlari va ularning badiiy tabiati ko'p tadqiq etilgan. Biroq hali ularning pedagogik jihatdan o'rganilmagan qirralari anchagina.

Xalq doimo o'z qadriyatlari, rahrahramonlari ulug'lab, ko'klarga ko'tarib kelgan. Ayniqsa, dostonlarda xalq qahramonlarining mard va jasurligi, vatanparvar

¹ Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-бет.

va mehnatsevarligi, oliyjanob va saxiyligiligi hayotiy misollar orqali bayon qilingan. Xalq ma'naviyatining sarchashma hisoblanmish dostonlar qadimgi davrlardan buyon xalqning yashash tarzi, urf-odati, an'analari, ruhiy va etnopedagogik xususiyatlarini g'oyaviy-badiiy asosda kuylab kelganligi bilan diqqatga sazovordir. Xalq orzusidagi o'lmas qahramonlar, ularning mardonavor kurashlari "Go'ro'g'li" dek doston timsolida mohirona kuylangan va bizgacha yetib kelgan. Prezidentimiz I.A. Karimov xalq yaratgan ana shunday noyob xazinalar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini nomoyon etadigan, avlodlardan – avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va tarixi tugallanmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag'rikengligi, matonat, oliyjanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan"²

Yurtboshimizning bu dono fikri "Go'ro'g'li" dostoniga ham tegishlidir. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

«Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan birlaridan jiddiy farq qiladi. Xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir. V. M. Jirmunskiyning yanada aniqroq fikriga ko'ra «Epos — bu xalqning qahramonlik

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 32-35-betlar.

idealizatsiyasi ko'lamidagi jonli o'tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmati, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir» M. Saidovning ta'kidlashicha, doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy tekst, muzika bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur.

O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p tarkibli bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi.

Qahramonlik dostonlari. O'zbek xalq dostonchiligi taraqqiyotida ko'pgina qatlamlar bo'lsa-da, ayniqsa, ikki qatlam, davomiy ikki bosqich — qahramonlik va romanik dostonlar bosqichi alohida ajralib turadi. O'zlarining yaratilish davri, tematikasi, g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy voqelikni tasvirlash usullari bilan ham bu dostonlar bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Biroq ular bir necha asrlar davomida baxshilar tomonidan baravar kuylab kelingan, shuning uchun ham bu xil dostonlar orasida muayyan yaqinliklar mavjud. Demak, biriga xos xususiyatning ikkinchisida zohir bo'lishi, sof qahramonlik dostonlariga xos belgilarning keyingi planga surila borishi, qahramonlik dostonlaridan romanik motivlar va epizodlarning o'rin olishi tabiiy edi.

«Qahramonlik» termini o'zbek folklorshunosligida ikki ma'noda — keng ma'noda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor ma'noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi. Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug'chilik munosabatlari, kuchmanchilik va yarim kuchmanchilik hayot tarzi bilan mahkam bog'liqdir. Bunday dostonlar xuddi shu turmush tarzining ifodasi sifatida patriarxal-urug'chilik jamiyatining so'nggi bosqichlarida yoki ilk feodalizm davrida turli urug'lar o'rtasida nizolar davom etayotgan va ular muayyan territoriyalarga joylashayotgan hamda yagona xalq sifatida uyusha boshlagan davrlarda yaratilgan. Bir qator urug' va qabilalarning muayyan xalq sifatida tashkil topa borishi, ilk davlatchilik kurtaklarining paydo bo'lishi va shu munosabat bilan xalqlar hamda elatlarning o'z mustaqilliklari uchun chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari qahramonlik dostonlari uchun boy material bo'ldi. Mana shu kurashlar

va tarkib topishlar, birlashishlar va joylashishlar jarayonida o'z-o'zini anglashning buyuk ifodasi sifatida qahramonlik eposi yuzaga keldi.

“Qahramonlik eposining mahobatli realizmi real ijtimoiy voqelikni qahramonlik idealizatsiyasi formalarida tasvirlaydi. Shu bilan birga, qahramonlar obrazi va ular amalga oshirgan jasoratlar tabiiylik chegarasidan birmuncha yuqori bo'ladi. Shu ma'noda ular ajoyib-g'aroyib, qiziqarli, ammo g'ayri tabiiy emas, kuychining sub'ektiv uydirmasi va ijodiy fantaziyasiga asoslangan romantik fantastika bo'lmaydi. Qadimiy qahramonlik eposida ajoyib-g'aroyiblik mifologiyaning, xalq ishonch-e'tiqodining real elementi sifatida namoyon bo'ladi...” Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida “Alpomish” misolida yetib kelgan.

Romanik dostonlar. O'zbek xalq baxshilari repertuaridagi dostonlarning eng katta qismi romanik dostonlardir. “Xalq romani”, “romanik” terminlari turkologiyada shartli ravishda qabul qilingan bo'lib, ular og'zaki yaratilgan, ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan dostonlar guruhini bildiradi. V. M. Jirmunskiy va H. T. Zarifovlar bu atamalarni muayyan dostonlar turiga nisbatan qo'llaganlarida, atamaning shartli ekanligini va ularni Yevropadagi “xalq kitoblari” bilan aralashtirmaslik kerakligini ta'kidlagan edilar. Chunki bu xil dostonlarda ko'tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g'ayri tabiiy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi.

O'zbek dostonchiligining qahramonlik eposidan keyingi yangi taraqqiyot bosqichi - romanik dostonlar feodalizm davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini, sevgi mojarolari, qo'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga, hayotiy hodisalar tasviri belgilaydi. Ko'tarinki ishq tuyg'ulari va bu yo'ldagi jasorat ideali bu tip dostonlarning asosini tashkil qiladi. Ularda ulug'vor sevgi romantikasi bilan unga erishish yo'lidagi fantastik sarguzashtlar qahramonligi birlashib, chatishib ketgan.

Romanik dostonlarning syujeti sxemalari nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga o'tlanadi,

ajoyib-g'aroyib hodisalarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayri tabiiy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni engib, o'z maqsadiga erishadi. Doston voqealari hashamatli saroylarda, shovqinli bozorlarda, sehrli bog'larda, tilsimli qo'rg'onlarda, vahimali rollarda, qo'rqinchli yer va suv osti yo'llarida kechadi. Biroq bu dostonlarning har biri kompozitsion qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanishi, xarakteri va mazmuni jihatidan mustaqildir.

Fantastik voqealar, sarguzashtlar girdobida murakkab ijtimoiy voqelikni barcha real tafsilotlari, ikir-chikirlari va qarama-qarshiliklari bilan tasvirlash romantik dostonlarga xos sodda realizmni tug'diradi. Hayotiy-maishiy xarakterdagi bunday realistik tematika xalq yumori va didaktikasi xususiyatlari bilan mahkam bog'liqdir.

Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalarga xos xususiyatlar ham mustahkam o'rin olgan. Hatto bir dostonda bir necha tema baravar ishlangan bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib, bu tip dostonlarni beshta ichki turga bo'lish mumkin. Bular: a) jangnoma-dostonlar ("Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek"); b) qahramonlik-romanik dostonlar ("Yakka Ahmad", "Ernazar", "Rustam" turkumi, "Go'ro'gli" turkumi); v) ishqiy-romanik dostonlar ("Kuntug'mish", "Ravshan", Xorazm dostonlari); g) maishiy-romanik dostonlar ("Sohibqiron", "Orzigul", "Erali bilan Sherali", "Shirin bilan Shakar", "Xurshidoy"); d) kitobiy dostonlar ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Bahrom va Gulandom", "Varqa bilan Gulshoh", "Vomiq bilan Uzro", "Zevarxon").

Jangnoma-dostonlar qahramonlik dostonlari bilan romanik epos o'rtasidagi alohida bosqichni tashkil etadi. Shu ma'noda ular alohida turni tashkil etishi mumkin. Ammo ularning qadimgi namunalari bizgacha yetib kelmaganligi sababli qo'limizdagi mavjud nusxalarida romanik dostonlarning janr xususiyatlari yetakchilik qiladi va ular o'zlarining keyingi taraqqiyotida romanik eposga yaqinlashib bordilar hamda uning tarkibiy qismiga aylandilar.

Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo'shin va yakka shaxslarning jasoratlarni tasvirlovchi dostonlar jangnoma-dostonlar deb yuritiladi. Jangnomalar qahramonlik dostonlari ta'sirida feodalizm davrida shakllangan. Agar bosh qahramon faoliyati qahramonlik dostonlarida yakka-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo'lsa, jangnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida ko'rsatiladi.

Hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq orasida targ'ib qilish maqsadida jangnoma formasidan foydalangan. Natijada "Jangnomai Abo Muslim", "Jangnomai Sayid Battol G'oziy", "Jangnomai Amir Hamza" kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'ib etgan shaxslarning nomi bilan bog'langan jangnomalar yuzaga kelgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan jangnomalarning qadimgi namunalariga "Rustami Doston", "Jangnomai Jamshid", "Qahramoni Qotil", "Ho'shang", "To'maris" kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbek baxshilari repertuarida jangnomalar nihoyatda ozchilikni tashkil etadi. Urug', qabila yoki xalqning mustaqilligi uchun olib borilgan janglarni tasvirlovchi qadimgi jang-yaomalar ("To'maris" kabi) zamonlar o'tishi bilan turli sabablarga ko'ra, epik repertuardan tushib qolgan bo'lishi mumkin. Buning o'rniga ideologik tazyiq tufayli janglar biror xalqning diniy e'tiqodlarini g'ayri dinlardan himoya qilish, o'z dinini o'tkazish tarzida talqin etila boshlagan. Biroq baxshilar repertuaridagi jangnomalarda "muqaddas urushlar" umumiy bir fondir, xolos. Aslida esa, dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko'rsatish, ona-yer daxlsizligi uchun kurash, el-yurtlar birligi, vatanparvarlik va do'stlik kabi olijanob g'oyalar kuylanadi. "Yusuf bilan Ahmad" va uning davomi bo'lgan "Alibek bilan Bolibek" dostonlari buning yorqin misolidir. Har ikkala doston vatanparvarlik tuyg'ulari, ona-yurt sog'inchi bilan yo'g'rilgan. Masalan, Yusufning Go'zalshoh huzurida o'z yurtini maqtashi, asirligida turnalar orqali diyoriga salom yo'llashi, Alibekning o'zga mamlakatlarda bo'lganida, Urganch elini qo'msashi epizodlari g'oyatda ta'sirlidir, ularni to'liqlanmay o'qish va eshitish mumkin emas. Yoki jangnoma-dostonlarning ko'pgina xususiyatlari mujassamlashgan "Xoldorxon" dostonida urush oqibatlarini, Keraksiz jangu jadallarni tasvirlash orqali xalqning

bosqinchilik urushlariga qarshi keskin noroziligi baralla yangraydi. Demak, jangnoma-dostonlarning asosini xalqchil g'oyalar, umumbashariy qarashlar tashkil etadi.

Romanik dostonlarning qahramonlik-romanik turiga mansub asarlarda qahramonlik yo'nalipti etakchilik qiladi, ya'ni ularda sevgi mojarolariga nisbatan qahramonlik temasini ishlash birinchi planda turadi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining ko'pchiligi bunga yorqin misoldir.

"Go'ro'g'li" dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Qaro'g'li, ozarbayjon, gruzin turk va boshqalarda Go'ro'gli nomi bilan shuhrat qozongan. Ozarbayjon "Ko'ro'g'li" sini birinchi marta to'plab, nashr etgan (1842) diplomat Xokozo: "Osiyoda biror burchak yo'qki, u yerda Ko'ro'g'lining nomi aytilmasin. Hatto Bessarabiya va Moldaviyada uning otini eshitasiz. Agar adiblarning shuhrati va mashhurligi ularning o'quvchilarining soni bilan hisoblansa, unda Firdavsiy Ko'ro'g'lidan biroz ortiq bo'ladi",— deb yozgan edi.

Xalq shoirlari Go'ro'g'lini buyuk samimiyat va iftixor bilan ardoqlab, uning xalqqa bo'lgan mehr-sadoqati, dushmanlarga cheksiz g'azab-nafrati, mamlakat mudofaasida yovuz bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurashlari, el-yurt farovonligi uchun g'amxo'rligini zavq bilan kuylaydilar. Turkumga kiruvchi barcha dostonlar ma'lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, jonli og'zaki an'anada yakka-yakka ijro etilsalarda, ular epik Chambil yurti, Go'ro'g'li tipi, uning jangovar safar yo'ldoshi G'irot, bir qator an'anaviy obrazlar (qirg'yigit, Ahmad Sardor, Soqib'ulbul, parilar va boshqalar) kabi qator vositalar bilan o'zaro birlashadi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo'linadi. Fanda biri Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchisi, O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq. o'zaro

muayyan umumiylikka ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari jihatidan bir-biridan printsiptial ravishda farq qiladi.

Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar ozarbayjon variantlarida o'z ifodasini topgan. Unda tasvirlanishicha, Ko'ro'g'li qirq yigitga bosh bo'lib, feodal tuzumiga qarshi isyonkorlik harakatlarini olib boradi. Kutilmaganda savdogarlar karvonini talaydi, o'ziga dushman qo'shni podsholiklarni yengadi, bunday janglarda ajoyib jasorat va qahramonliklar ko'rsatadi, cho'pon, otboqar, darbadar baxshi, duoxon, folbin qiyofalarida dushman ichiga kirib, juda usta tadbirkorlik bilan asir tushgan yigitlariga yordam beradi, o'ziga va yigitlariga ma'qul bo'lgan go'zallarni olib qochadi. Ko'ro'g'lining jasorati va mardliklari haqidagi bunday hikoyalar yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega. Bu hikoyalar mag'zida xalq og'zaki ijodi bo'yoqlaridagi real tarix yotibdi. Turkiya sultoni yoki Eron shohlariga tobe bo'lgan yarim mustaqil podsholiklardagi turli xil saroy intrigalari, feodal hukmdorlari yashagan gavjum savdo va hunarmandlik shaharlaridagi hayot, katta karvon yo'llaridagi janglar ozarbayjon versiyasining tarixiy asoslari hisoblanadi va shunga ko'ra, Ko'ro'g'li Eron shohi Abbas I ning (1585-1628) zamondoshi qilib ko'rsatiladi. Chindan ham arman tarixchisi Arakel Tavriziyning (vafoti 1670 yil) ko'rsatishicha, shoh Abbas va Turkiya sultoniga qarshi qo'zg'olon ko'targanlarning boshliqlaridan biri Ko'ro'g'li bo'lgan. "Bu — hozir oshiqalar kuylayotgan juda ko'p qo'shiqlarni tuqigan Ko'ro'g'lining xuddi o'zi", -deya yanada aniqlik kiritadi arman tarixchisi.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa, umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish konkret tarixiy voqealar sifatida emas, balki mislsiz romantik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Hamma narsa - hayot ham, xalq turmushi ham, mavjud zamon etishtirgan qahramonlar ham ko'tarinki romantik bo'yoqlarda, bepoyon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida

gavdalanadi. Ana shu bepoyon ideallik va cheksiz romantika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamoxang qilgan.

O'zbek dostonlarida Guro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, sonuniy hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab etishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu bahodan kelib chiqib, Chambil yurtining afsonaviy hukmdori Go'ro'g'lining bahodir qirq yigiti bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo'shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi Chambil eli, qabila ozodligi uchun olib borilgan urush tarzida namoyon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi o'ziga xoslikni tashkil etadi.

O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida "Kunlarim", "Go'ro'g'li", "Go'ro'g'libek — zo'r botir", "Armoning qolmasin", "Bormi jahonda", "Armonim qolmadi" kabi termalar bilan bir qatorda, har biri bir yarim-ikki ming satrdan tortib, o'n-o'n ikki ming misrali (qariyb shuncha nasriy qism ham mavjud) ko'plab dostonlar yaratgan. Bu materiallarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir-biridan printsiiial ravishda farq qiluvchi ikki versiyada tarqalgan.

Bu versiyalarning biri Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari bo'lib, ular turkman versiyasiga juda o'xshash, ozarbayjon "Ko'ro'g'li"siga ancha yaqin turadi. Turkumga birlashgan Xorazm dostonlari yigirmadan ortiq bo'lib, syujeti, ijro usuli va tekstning hajmi jihatidan jiddiy tafovutlarga ega. "Go'ro'g'lining do'rayishi", "Arab tanggan", "Avaz keltirgan", "Avaz uylantirgan", "Avazning ozod etilishi", "Qirq minglar", "Bozirgon", "Kampir", "Xirmon dali", "Gulruh pari" va boshqa dostonlar Xorazm "Go'ro'g'li" turkumini tashkil etadi.

O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, bu versiya hajmining kattaligi, ijro usuli bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan dostonlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni birida bo'lgan

doston (masalan, “Xirmon dalli”) ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, “Ravshan”) birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada prinsipial ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko’rsatadi.

Xorazmdan boshqa joylardagi o’zbeklar orasida tarqalgan “Go’ro’g’li” dostonlari qirqdan ziyoddir. Baxshilar og’zidan yuzdan ortiq “Go’ro’g’li” dostonlari variantlari bilan yozib olindi. Turkumga quyidagi dostonlar kiradi: “Go’ro’g’lining tug’ilishi va bolaligi”, “Zaydinoy”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Rayxon arab”, “Bektosh arab”, “Shohdorxon”, “Xoldorxon”, “Zamonbek”, “Xidirali el-begi”, “Berdiyor otaliq”, “Elomon”, “Shodmonbek”, “Doniyorxo’-ja”, “Oydinoy”, “Xoldor buvish”, “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Dalli”, “Avazxon”, “Balogardon”, “Intizor”, “Gulixiromon”, “Bo’tako’z”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Zulfizar bilang Avaz”, “Avaz bilan Oyzaynab”, “Mashriqo”, “Malika ayyor”u “Girdob”, “Sinsuluv pari”, “Xonimoy”, “Oltin qovoq”, “Avazning arazi”, “Xushkeldi”, “Avazning o’limga hukm etilishi”, “Balxuvon”, “Nurali”, “Malla savdogar”, “Nuralining yoshligi”, “Ravshan”, “Jahongir”, “Ero’g’li” va boshqalar.

Dostonchilar ma'lumotiga qaraganda, “Ero’g’li” turkumning oxirgi dostoni bo’lib, unda Go’ro’g’lining keksaygan davri va Sulduzi tog’ida g’oyib bo’lishi tasvirlanadi. Epik traditsiyaga ko’ra, Go’ro’g’liga uzoq umr — 120 yosh berilgan bo’lsa-da, u o’lmaydi, balki afsonaviy Sulduzi tog’ida g’oyib bo’ladi. Rivoyatlarga qaraganda, sevimli yorlari Yunus va Misqol parilar Go’ro’g’liga, keksayganingda sening nomingni o’chirmaymiz, dostonning aytiramiz, deb va’da bergan emish. Parilar esa o’lmaydi, ular-baxshilarga qunib yurib, Go’ro’g’li so’zlarini ularning ichiga joylar emish, shu tufayli baxshilar ham Go’ro’g’lining o’g’illari emish. Mana shunday e’tiqodlar tufayli irim qilib, “Ero’g’li” dostonini yaxshi bilsalar ham, boshqa asarlarday keng kuylab yurish baxshilar o’rtasida rasm bo’lmagan. Shuning uchun ham uning mukammal variantini yozib olishga muvaffaq bo’linmagan. Uning ayrim tugallanmagan variantlari Surxondaryo va Janubiy

Tojikistonda yashovchi o'zbek baxshilaridan yozib olingan. Sherobodlik Yusuf O'tagan o'g'lidan 1945 yilda M. Afzalov tomonidan yozib olingan, hozircha nisbatan to'la deb hisoblangan "Shahidnoma" dostoni ham baxshilar repertuaridagi "Ero'g'li" dostonining barcha xususiyatlarini o'zida mukammal saqlay olmagan.

"Go'ro'g'li" dostonlari muayyan bir turkumni tashkil etsalarda, ular qahramonning bir-biriga uzviy bog'langan muntazam biografiyasi emas, balki turli baxshilar va dostonchilik maktablari tomonidan uning ayrim jasorat va mardliklarini tasvirlovchi turli davrlarda yaratilgan asarlarning keyinchalik nasliy, biografik va geografik turkumlik doirasida o'zaro birlashtirilishidan iborat. Chunki bu dostonlar uzoq davolar mobaynida ko'plab talantli dostonchilar va dostonchilik maktablarining kuchi bilan bunyod etilgan. Ularning ba'zilari uzoq tarixda, O'rta Osiyoda islom dini tarqalishidan burungi davrlarda maydonga kelgan. Ba'zilari bundan uch-to'rt asr ilgari yaratilgan va zamonamizga qadar juda ko'p xalq shoirlari tomonidan har qaysisining o'z zamoni talablariga ko'ra qayta-qayta ishlanib, ko'p variantlarda bizgacha etib kelgan.

Xalq bahodirining ajoyib-g'aroyib holda tug'ilishi va qahramonona yoshligini tasvirlovchi "Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi" dostoni bilan "Go'ro'g'li" dostonlari turkumi boshlanadi. Dostonning Pulkan shoir variantida tasvirlanishicha, Guro'g'lining bobosi To'liboy sinchi Mari yurtining begi Qovishtixonning o'g'li bo'lib, yoshligida Yovmit podshosi Odilxonga asir tushadi. To'liboy sinchi xizmatlaridan ko'ngli to'lgan Odilxon qizi Oyshani unga nikohlab beradi. Bulardan bo'lg'usi qahramonning otasi Ravshan tug'iladi. Taka-Yovmit yurtining doimiy dushmani Shohdorxonning navbatdagi bosqinlaridan birida Ravshan, shuningdek, Taka-turkman begi Jigalixonning farzandlari Gajdumbek va Bibi Hilollar Zangar yurtiga asir tushib ketadi. Zangarda Ravshan bilan Bibi Hilol tasodifan uchrashib qolib, bir-birlarini sevadilar va turmush quradilar. Bu orada Ravshanning sinchiligi xabari Shohdorxonga yetib keladi. Shohdorxon uni saroyga chaqirib, otlarini ko'rsatadi. Ravshan bular ichida tulpor yo'qligini aytib, holvachining otini maqtaydi. Achchiqlangan xon Ravshanning ko'zlarini o'yib oladi. Ravshan kur kuzining xuniga holvachining

otini tilab olib, shu ot yordamida qaynag'asi Gajdumbek bilan Evmitga qochadi. Zangarda qolgan Bibi Hilol qornidagi olti oylik gumonasi bilan vafot etadi. Go'rda o'lik onadan bulajak qahramon tug'iladi. Chupon Rustam uyuridagi bir baytal uni emizadi va keyinchalik u Rustam yordamida shu baytalda Evmitga qochib keladi. Ko'rinadiki, epos an'anasiga ko'ra, Go'ro'g'lining kelib chiqishi yuqori tabaqa bilan bog'lansada, u avvalo, kambag'al bir otboqar sinchining o'g'li; chupon Rustam tarbiyasida voyaga yetadi, xalq qahramonlariga xos g'ayri tabiiy yusinda tug'iladi va bahodirlik kamolotiga erishadi. Bu bilan, bir tomondan, Go'ro'g'lining yoshligidanoq xonlarga, feodallarga, saroy aristokratiyasiga qarshi tarbiyalanganligi ko'rsatilsa, ikkinchidan, uning epik Chambil yurtining qonuniy hukmdori ekanligi har jihatdan asoslanadi.

“Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi” dostoni ko'p planli asar bo'lib, unda G'irot biografiyasiga oid ham ajoyib ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan (“suv oti”dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayhon arabning dong'i chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada, uchinchi ot - G'irko'k tug'iladi. G'irkuk yetti kunlik bo'lganda onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli xayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'irot orasida juda ko'p uxshashliklar bor: dostonida har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi (To'liboy — Ravshan — Go'ro'g'li; qahramonni emizgan baytal — “suv ot” dan tug'ilgan urg'ochi qulun-G'irko'k); ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxura va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti O'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dostonida yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldinda” belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, yovmig eliga xon qilib ko'tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shohdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon,. Rayhon va Go'ro'g'li tuqnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu birinchi dostonidayoq o'zbek “Go'ro'g'li” oziga xos bo'lgan cheksiz fantaziya, kuz ilgamas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi.

Bu hol, ayniqsa, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari” dostonlarida yanada yorqin ko’rinadi. Bu asarlar Go’ro’g’lining uylanishi va shu bilan bog’liq qahramonliklariga bag’ishlangan.

Epik an'anaga ko'ra, Go'ro'g'lining ikki xotini — Yunus va Misqol parilar (Po'ltan varianti bo'yicha uchinchi — Gulnor pari) bor. Ular Ko'hi Qofda Eram bog'ida yashaydi, ularni juda katta devlar qo'riqlaydi. Parilar Go'ro'g'liga ilgaridan “belgilangan” bo'lsa-da, ularni qo'lga kiritish uchun katta jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Go'ro'g'li buni qoyil qilib bajaradi.

Turkumda Go'ro'g'li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayhon arab, Bektosh arab, Xunxorshoh va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayhon arabning Go'ro'g'lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va o'z navbatida yosh Go'ro'g'lining Rayhon arab qizi Zaydinoyni tog'asiga keltirib berishi (“Zaydinoy” dostoni) ular o'rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday dushmanlik harakatlari ko'pchilik asarlarda epizodik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda (“Rayhon arab”, “Chambil qamali”, “Bektosh arab” va boshqalar) bu narsa ikki xalq o'rtasidagi haqiqiy jang tarzida kengaytiriladi. Lekin bosqinchilik urushini har gal arab hukmdorlari boshlaydi va har gal ular Go'ro'gidan yengiladi.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida qahramonning ota jihatdan tog'asi Ahmad Sardor bilan, Ahmad Sardorning qirq yigit, Hasan, Avazlar bilan munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Ahmad Sardorning oilaviy va siyosiy intrigalari, uning Go'ro'g'li va yigitlariga nisbatan g'arazi ayrim asarlarda (“Xushkeldi”, “Avazning arazi”, “Intizor”, “Xoldorxon”, “Xidirali elbegi”, “Malika ayyor” va boshqalar) umumiy tarzda so'yilsa, bir qator dostonlarda (“Ahmad Sardor va Hasanshoh”, “Axmad Sardor va Avaz”, “Avazxonning o'limga hukm etilishi”) bunday harakatlar asar syujetining asosini tashkil etadi.

Turkumda Go'ro'g'lining bahodir qirq yigitiga alohida o'rin beriladi. Bular Go'ro'g'lining bahodirliklarini tan olib, uning atrofiga ixtiyoriy ravishda uyushgan turli urug' va qabilalarning beklari hisoblanadi. Masalan: Zamonbek taka

urug'idan, Shodmonbek o'zbekning muytan urug'idan, Xidirali elbegi qoraqalpoq, To'lak botir tojik va boshqalar. Ayrimlarini esa (Xoldorxon, Yusuf sulton, Ashurbek) Go'ro'g'libek turli mamlakatlardan olib keladi. Feodal o'tmishda turli urug' va qabilalar o'rtasida kelishmovchilik va nizolar bo'lib turgan bir paytda, Go'ro'g'li hukmdorligining bunday internatsional tus olishi printsiptial ahamiyatga ega. Bu san'atkor baxshilarimiz dunyoqarashidagi ijtimoiy-siyosiy xayolning ajoyib mahsulidirki, xalqlar, el-yurtlar do'stligi va birodarligini hamisha ardoqlab va kuylab kelgan xalqimiz tabiatiga, uning buloqdek tiniq, qaynab turgan badiiy ijodi mohiyatiga mosdir.

Go'ro'g'lining qirq yigiti qayerdan va qaysi urug'dan bo'lmasin, afsonaviy ozod o'lka — Chambilning ozodligi, xalqining farovonligi uchun tinmay kurash olib boradi. Shuning uchun ham ular baxshilarimiz tomonidan buyuk samimiyat va hurmat bilan ulug'lanadi. Go'ro'g'lining doimiy yo'ldoshi bo'lgan bu jasur yigitlarning bir qanchasi faoliyatiga alohida-alohida dostonlar (“Xoldorxon”, “Zamonbek”, “Xidirali elbegi”, “Berdiyor otaliq”, “Elomon”, “Shodmonbek”, “Doniyorxo'ja” va boshqalar) bag'ishlangan.

Turkumdagi anchagina dostonlar Go'ro'g'lining asrandi farzandlari — Hasan, Avaz; nevaralari — Nurali, Ravshan va evarasi Jaxongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan ichki turkumlarni tashkil etadi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarning olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (“Hasanxon”, “Avazxon”) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o'z biografiyalari bor, ularning har biri turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston (“Dalli”)ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa, butun bir dostonlar (“Balogardon”, “Intizor”, “Bo'tako'z”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Zulfizar bilan Avaz”, “Gulixiromon”, “Malika ayyor”, “Mashriqo” va boshqalar) turkumining bosh qahramonidir. Bu dostonlarning asosini Avazxonning turli afsonaviy mamlakatlar guzallarini olib kelish uchun ko'rsatgan bahodirliklari tashkil etadi. Hasan va Avaz kichik turkumlari Go'ro'g'li, G'iro't,

qirq yigit, doimiy traditsiey obrazlar (Ahmad Sardor, Soqibulbul, Hasan Ko'lbar va boshqalar), Chambil yurti orqali Go'ro'g'li turkumiga birlashadi.

Nasliy turkumlik doirasida yuzaga kelgan navbatdagi dostonlar Go'ro'g'lining nevaralari — Nurali va Ravshanlarning nikoh safarini tasvirlovchi asarlardir ("Nurali", "Ravshan"). Bu yosh qahramonlar faqat bir doston doirasida harakat qiladilar. Ayrim joylardagina (Surxondaryo va Qashqadaryo oblastida) Nuraliga bir necha doston bag'ishlangan, ya'ni bu joylardan Nurali ancha ommalashgan.

Nasliy turkumlanishda so'nggi bosqichni Go'ro'g'lining evarasi (Nuralining o'g'li) Jahongir haqidagi epik rivoyat tashkil etadi. Nasliy turkumlilik prinsiplari asosida yuzaga kelgan Go'ro'g'lining o'g'illari, nevaralari va evarasi haqidagi dostonlar uning "farzandsizligini" keyingi planga suradi. An'anaga ko'ra, "farzandsiz" hisoblangan "Go'ro'g'li" oqibatda uch avlod qahramonlarining sardori va murabbiysi sifatida maydonga chiqadi. Agar bu silsila dostonlar bir yerga to'plansa, yarim millionga yaqin she'riy va nasriy satrlardan iborat bo'ladiki, bu beqiyos epik ijodiyot xalqimizning yuksak ijodiy dahosidan dalolat beradi.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari xalq hayoti, turmush va maishatini, orzu-umidlari va ideallarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng planda tasvirlovchi epopeyadir.

Ishqiy-romanik dostonlarda sof muxabbatni kuylash, intim sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga aloxida e'tibor beriladi. Ularda bir tomondan, sevgi yo'lidagi achchiq qismat, iztirob, rutiy dramalar yorqin gavdalantirilsa, ikkinchidan, shu achchiq qismat tasvirida adolatli turmushga intilish, sevishganlarning oxir-oqibatda kovushishlari va yorqin kelajakka ishonch yog'du sohib turadi.

Bu jihatdan "Quntug'mish" dostoni xarakterlidir. Unda zulm va zo'rlik bilan bir-biridan ajratilgan oshiq-ma'shuqlar taqdiri, adolatsiz zamon to'fonida o'tanasidan va bir-biridan ajralib qolgan egizaklar taqdiri turli-tuman ijtimoiy hodisalar fonida nixoyatda konkret va real tasvirlangan. Misralarning rang-barang tovlanishi, qofiyalarning xilma-xil va nihoyatda boyligi, bandlarning turli-tuman

vaznlarda mohirlik bilan urin almashtirilishi, asosiy ma'noni tashuvchi chiroyli radiflarning mulkulligi kabilar uning badiiy barkamolligini ko'rsatib turibdi. Dostonda vafo va sadoqat, oila va erkin muhabbat, bolalar va ota-onalarning burchi haqidagi xalqimizning orzu-umidlari, ideallari o'zining yorqin ifodasini topgan.

Maishiy-romanik dostonlarda realistik momentlar, mavjud tuzumdan ijtimoiy norozilik kayfiyatlari, maishiy turmush bilan bog'liq turli-tuman tafsilotlarni batafsil tasvirlash yetakchilik qiladi. Bunday dostonlar syujeti feodalizm sharoitida o'zining real zaminiga ega edi. Masalan, «Qironxon» (“Sohibqiron”) dostonida realistik holatlar fantastik voqea va hodisalar bilan uyg'un bir holatda tasvirlanadi. Farzandsizlik tufayli chekilgan ohu zorlar, kundoshlarning mol-dunyo uchun har qanday yaramasliklardan qaytmasliklari, hatto o'zlarining g'arazli niyatlarining amalga oshishi uchun begunoh go'daklarni ham o'ldirishga tayyor turganliklari, hukmdorning adolatsiz hukmi, Bo'tako'zning zindonda tortgan azoblari, Xudoyqul podachining maishiy turmush sharoiti qanchalik real bo'yoqlarda ko'rsatilgan bo'lsa, cho'lga uloqtirilgan egizaklar — Qironxon va Qorasochlarning taqdiri, sarguzashtlari, Qironxonning o'zga yurtlarga qilgan safarlari shunchalik fantastik qobiqda, sehrli ertaklarga xos tarzda berilgan. Bu xil dostonlarda xalqimiz va baxshilarning demokratiya qarashlari yanada yorqinroq aks etgan.

Romanik eposning yana bir ichki turini kitobiy dostonlar tashkil etadi. Bu o'rinda “kitobiy” atamasi nihoyatda shartli bo'lib, ular ham aslida og'zaki kuylangan va bizgacha og'zaki ravishda yetib kelgan dostonlardir. Asoslarigina yozma adabiy manbaga borib taqaladigan bunday dostonlarni xalq baxshilari shundayligicha olmay, balki ularni jonli og'zaki epik an'analarga to'la bo'ysundirdilar. Boshqacha aytganda, kitobiylik, asosan, bunday dostonlarning manbaidadir, ijro va poetika elementlarini esa, epik ijodiyotning og'zaki an'analari tasavvur qilish mumkin emas.

Klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan

asarlar kitobiy dostonlar deb yuritiladi. Kitobiy dostonlar unga asos bo'lgan manbaning xarakteriga qarab, romanik yoki qahramonlik dostonlari xususiyatlarini o'zida muayyan daoajada saqlagan bo'lishi mumkin. Ularda sof folklor dostonlari uchun xarakterli bo'lgan qahramonona jasorat, jangu jadallardagi jangovarlik nihoyatda sujet berilgan, asosiy o'rinni ijtimoiy va oilaviy hayotning shart-sharoitlari bilangina kelisha olmagan zavqli, ko'tarinki muhabbat temasining tasviri egallaydi.

1.3. “Go‘ro‘g‘li” dostoni – o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash manbai sifatida

Hozirgi kunda ajdodlarning ko‘p asrlar davomida ta’lim va tarbiya sohasida o‘rttirgan boy, ijobiy tajribasini o‘zlashtirish asosida yosh avlodni Respublikamiz taraqqiyotiga hissasini qo‘sha oladigan barkamol qilib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

Ma’lumki, o‘zbek halq pedagogikasida yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llangan usul va vositalar, tadbir va shakllari, milliy urf-odat va an’analar, tarbiya haqidagi g‘oyalar mujassamdir. Xalq pedagogikasida ifodlangan g‘oyalar, tajribalar halq yaratgan dostonlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, “Go‘ro‘g‘li” dostoni o‘z muxtasarligi, qiziqarliligi, rovonligi, oxangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi) g‘oyaviyligi bilan g‘oyatda muxim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ushbu manbalarning bizgacha yetib kelishida xalq orasidan chiqqan ijodkorlar – baxshilarning roli juda katta bo‘lgan. Jumladan, Qodir baxshi Raximov tomonidan ijro etilgan “Zaydinoy” dostoni ham muhim pedagogik manba hisoblanadi.

“Zaydinoy” dostoni Go‘ro‘g‘li biografik turkumining dastlabki dostonlaridan biridir. Go‘ro‘g‘li ota-onasiz bo‘lganligi sababli uni tarbiyalash va himoya qilish Xizir hamda chiltonlarga yuklatiladi. ular Go‘ro‘g‘liga o‘z maqsadiga erishishida homiylik qiladilar va unga nasihatlar, duolar orqali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, tarbiyalab boradilar. Ushbu dostonida yuzlab nasihatlar va nasihat duolar keltirilgan bo‘lib, epik qahramon Go‘ro‘g‘liga ilohiy homiylik – qirg

Chilton tomonidan aytilgan qirq nasihatning o‘ziyoq muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Qiriq chiltonning qirq sabog‘i to‘rtliklar – ruboiy shaklida aytilib, unda sahoat, rost so‘zlash, do‘st tanlash, yaxshilik, mamlakatni boshqarish, shirinso‘zlilik, ota-onani hurmat qilish kabi ma’naviy-axloqiy sifatlar hayotiy misollar orqali izohlanadi. Chiltonlarning ushbu saboqlari Go‘ro‘g‘lining bolalik davrida berilgan. Shu sababli ushbu to‘rtliklar sodda tilda, bolaning yoshiga mos holda bayon etilishi bilan birga, g‘oyat yuksak mazmunga ham egadir.

Qodir baxshining ijodidagi muhim jihat ham shundaki, uning ijrosida xalqchillikni yaqqol his etish mumkin. YA’ni ushbu pand-nasihatlar ham barcha uchun tushunarli tarzda hayotiy misollar, xalq maqollari orqali tushuntiriladi. Har bir to‘rtlikdagi misralarda ifodalanadigan majoziy fikrlar ham o‘gitning asosiy g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq tarzda ifodalandi.

Ilohiy homiylarning yosh Go‘ro‘g‘lini tarbiyalash maqsadida bayon etgan nasihatlar uzviylashtirilgan va yaxlit bir tizimga ketma-ketlikda beriladi. Jumladan, tarbiyalanuvchini yaxshilikka undovchi fikrlar ham bir-birini to‘ldirib boradi. Nasihat avvalida – 1-saboqda dunyoning o‘tkinchiligi tushuntiriladi va demak inson bu o‘tkinchi dunyoda faqat yaxshilik qilishi lozimligi uqtiriladi:

Tiriklikda bilgin davri davronsan,

Oqibatda bir jonzodga makonsan.

Bu jahonda sanog‘i yo‘q insonsan,

Shuni bilgin bir-biringga mehmonsan.

Inson bu o‘tkinchi dunyoda mehmon ekan, demakki u umrini yaxshilik qilish bilan o‘tkazishi lozim. Shu sababli 2-saboq yaxshilik haqidadir:

Bug‘doyni qaragin o‘rtasi tilik

Chiroqni yondirib bo‘lmas bepilik.

Ming yil qilgan ibodatdan yaxshidir,

Qila olsang bir insonga yaxshilik.

Shundan so‘ng 3-saboqda “Yaxshilik o‘zi nima?” degan savolga javob beriladi:

*Yomonning kasodi tegar har joyda,
Yaxshining yordami tegar tang joyda.
Yomonning makoni doim tor bo'lar,
Yaxshining makoni bordir har joyda.*

Keyingi saboqlarda (7-saboqda) soʻzning qudrati haqida fikr yuritilib, inson bir soʻz bilan ezguliklar qilishi mumkinligi va bir soʻz bilan “shoh qal’asi”ni vayron ham qilish mumkinligi uqtiriladi:

Bir soʻz bilan buzilar shoh qal’asi,
Ingranib chiqadi goʻdak nolasi,
Oʻt balosi, suv balosi yomondir,
Undan yomon, bilgin tuhmat balosi.

Va bunday fikrlardan kelib chiqadiki, insonning qancha umr koʻrgani uning qilgan yaxshiliklari bilan oʻlchanadi (8-saboq). YA’ni, ayrim insonlarning qilgan bir savobli ishlari butun umrlariga tatigulik rahmat olib kelsa, ayrim insonlar butun umrlari davomida ham birovga yaxshilik qilmay oʻtishlari mumkin ekan.

Birovning bir kunda qilgan ishini,
Birov qilolmaydi yashab yoshini,
Birov bir kunida ming yil yashaydi,
Birov ming kunda ham yigʻmas esini.

Chiltonlarning keyingi saboqlarida yaxshilikning bir koʻrinishi boʻlmish sahovat haqida toʻxtalib oʻtiladi (14-saboq). Sahovat bu oliyhimmatlilik, birovlariga yaxshilik qilish demakdir. Sahovat qilish uchun inson umri davomida topadigan davlatini sarf qilishni bilishi, har bir insonni – u boy yoki kambagʻal boʻlishi, bola yoki katta yoshli boʻlishidan qatʼiy nazar hurmat qila bilishi lozim:

Mensimaslik keltiradi adovat,
Yigʻolmagan qilolmaydi sahovat,
Gadoni koʻrganda kulmagin zinhor,
Bolani koʻrsangda aylagin hurmat.

Islom ta’limotining asosi boʻlmish Qur’oni Karimning “Al-isro” surasida “Parvardigoringiz, yolgʻiz Uning oʻziga ibodat qilishingizni hamda ota-onaga

yaxshilik qilishingizni amr etdi” deyiladi. Ota-onani hurmat qilish eng oliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Sharq tarbiyashunosligiga xos xususiyatlardan biri ham ota-onani ulug‘lash, ularga hurmat ko‘rsatish va yaxshilik qilishga chaqirish g‘oyasiga alohida e‘tibor qaratilishidir. Ushbu g‘oya “Zaydinoy” dostonida ham nazardan chetda qolmagan. Chiltonlarning 25- va 26-saboqlarida ota va onani hurmat qilishga chaqiriladi:

*Ota bilan yashar ushbu basharyat,
Farzand uchun ota oltin imorat.
Yomon bo‘lsa hamki ota ulug‘dir,
Ketgan bo‘lsa qil qabrin ziyorat.*

*Ona ko‘rsatadi jahon yuzini,
Oltin bit har bir aytgan so‘zini,
Birisi oy bo‘lsa, biridir quyosh,
Tavob ayla bosib ketgan izini.*

Chiltonlarning yaxshilikka undovchi nasihatlarini insonlarga yaxshilik qilish, sahoat ko‘rsatishning natijasi yaxshi nom qoldirish haqidagi saboqlar (36- va 37-saboq) bilan yakunlanadi:

*Yaxshidan, yomondan birday nom qolar.
Har kim qilganiga haqini olar.
Yomonga la‘natdir, yaxshiga rahmat,
Yaxshini bu olam ardoqlab kelar.*

Ya’ni, nasihatda ifodalanishicha, yaxshimi, yomonmi – har bir inson bu olamdan o‘tadi. Ammo har kim qilgan amallariga ko‘ra haqini oladi. Umri yomonlik bilan o‘tgan insonni orqasidan la‘natlasalar, yaxshi insonni hamma ardoqlab yodga oladi. Bu yaxshi nom qoldirish demakdir.

Inson yaxshi nom qoldirish uchun turli ezgu amallarni amalga oshirishi mumkin:

*Bog‘bonning ustasi guldun bilinar,
Shohlikning shavkati yo‘ldan bilinar,*

Odamzod bir daraxt ekib ketsa ham,

Qalbining pokligi shundan bilinar.

Bu toʻrtlikdan anglashiladiki, bogʻbon yaxshi nom qoldirishi uchun insonlarga zavq-shavq bagʻishlovchi gullardan iborat gulzor qiladi, shavkatli nom orttirmoqchi boʻlgan shoh esa ellarni birlashtirib turuvchi ravon yoʻl qurdiradi. Hattoki insonning ekib ketgan bitta daraxti ham uning qalbi pokligini bildirib turadi va shu bilan u yaxshi nom qoldiradi.

“Zaydinoy” dostonida chiltonlar saboqlari orqali ifodalanadigan nasihatlardagi ravonlik, gʻoyalardagi uzviylik va tizimlilik bir tomondan xalqning yaratuvchanligini bildirsa, ikkinchi tomondan xalq baxshisi Qodir baxshi Raximjon oʻgʻlining mahorati, ijodidagi betakrorlik va fikrlarini ifodalashdagi uzviylikni koʻrsatadi.

Ushbu dostondagi nasihatlardan yosh avlod tarbiyasida oʻrinli foydalanish ularda maʼnaviy-axloqiy sifatlar bilan birgalikda, milliy qadriyatlarimizdan faxrlanish va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishga yordam beradi.

“Goʻroʻgli” doston turkumiga mansub **“Nuralining yoshligi”**da ham maʼnaviy-axloqiygʻoyalar nihoyatda teran ifodalangan. Unda oʻzbek xalqiga xos boʻlgan mardlik, tantilik, vatanparvarlik, or-nomus, oriyat, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, ilm olishga intilish kabi bir qator fazilatlar haqida tushunchaga ega boʻladi. Jumladan boʻlimda Goʻrugʻli, Avazbek, Nurali obrazlari orqali oriyatli shaxs gavdalantirilgan. Dostonda Gurugʻli nevarasi asrga tushganligini aytishga uyalib, uni Nuralibek deb izlamasdan, qora norni koʻrgan bormi deya chaqirtirgani bayon qilinadi:

Koʻp shaharga bordim soʻrab,
Topolmadim norim istab,
Bandi nuqra, tilla xatab,
Qora nordin koʻrgan bormi?

Yoki bandi boʻlib yotgan oʻgʻlini olib qochmoqchi boʻlgan otasi Avazxonga:

Ming yigitim oʻldi dushman qoʻlida,
Men ham shahid oʻlay alar yoʻlida,
Uchirtirib yuray Chambilbelida,

Bul kun menga qochmoq ordir, otajon!

Nurali der ajal bolin ichmasam,
Orim bitmay shirin jondin kechmasam,
O‘rda ichra shohning qizin quchmasam,
Shartim birdir, qochmoq ordir, otajon!..

deya Nuralining zindondan pinhona qochishga rozi bo‘lmaganligi bayon etiladi. Ushbu parchalarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan oriyat tushunchasi mohirona bayon etilgan. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki ushbu dostonidan o‘quvchi yoshlarimizda g‘urur, iftixor, oriyat, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni tarbiyalashda keng foydalanishimiz mumkin.

2-BOB. “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING YO‘LLARI VA VOSITALARI

2.1. Doston vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mavjud ahvoli

Biz “Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mavjud ahvolini bilish maqsadida boshlang‘ich sinflar o‘qish darsliklarini tahlil qilib chiqdik. Tahlil natijasi shundan dalolat berdiki, o‘qish darsliklarida “Go‘ro‘g‘li” dostoni epizodlaridan parcha keltirilmagan. Bizningcha ushbu dostonidan darslikda parchalar keltirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, biz 1-bobda tahlil qilib o‘tganimizdek, dostonning o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati nihoyatda kattadir. Undagi epizodlar, voqealarning borishi, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar, ajdodlarimizning marq va jasurligi, vatanparvarligi, oliyjanoblighi haqidagi fikrlar o‘quvchilarni befarq qoldirmaydi, degan fikrdamiz. Shu bois biz darsliklarda dostonidan parcha keltirilishini yana bir bor tavsiya etib qolamiz.

Tajriba-sinov ishlarini yanada davom ettirishni oldimizga maqsad qilib, tajriba maydonchasi sifatida Qarshi shahridagi 29-o‘rta umumta’lim maktabini tanlab oldik. Tadqiqotimiz avvalida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ko‘plab dars mashg‘ulotlarini kuzatdik. Jami kuzatgan darslarimiz soni 30 soatni tashkil etdi. Bunda biz o‘qituvchilarning o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga oid ishlarining ahvoli, biz tanlagan mavzuga o‘qituvchilarning qiziqishlarini aniqlashga harakat qildik. Tajriba-sinov ishlarida jami 12 nafar o‘qituvchi va 28 nafar boshlag‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etishdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga og‘zaki savollar bilan murojaat qildik. Biz tuzgan savolnomalarimizda quyidagi savollar o‘z aksini topgan edi:

1. Xalq og‘zaki ijodi namunalariga nimalar kiradi?
2. Qanday o‘zbek xalq dostonlarini bilasiz ?

3. “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi qanday qahramonlarni bilasiz?
4. “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarga misollar keltiring?
5. “Go‘ro‘g‘li” dostonini qaysi baxshilar ijro etgan?
6. O‘quvchilaringizga sinfdan tashqari o‘qishda “Go‘ro‘g‘li” dostonini tavsiya qilganmisiz?
7. “Go‘ro‘g‘li” dostonidan tashqari qanday dostonlarni bilasiz?
8. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
9. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nimalar kiradi ?

Savollarga javob bergan o‘qituvchilar javobi yuqori, o‘rta va quyi daraja ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni 12 nafar o‘qituvchidan 2 nafari savollarga yuqori darajada, 4 nafari o‘rta darajada, qolgan 6 nafar o‘qituvchi esa quyi darajada javob berdi.

Og‘zaki savol-javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan yaqindan tanish emaslar. Faqatgina dostonning ayrim epizodlarini biladilar xolos. Qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar haqida ham yuzaki ma’lumotga egalar. Biz bergan savollarga o‘qituvchilarning bergan javoblari a’lo darajada deb bo‘lmasligiga sabab, o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlamasligi, vaqtida malakasini oshirmayotganligi va vaqtli manbuotda berilayotgan ma’lumotlar bilan tanish emasliklari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sinfdan tashqari o‘qish va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda o‘qituvchilar faoliyatida tashabbuskorlikning yetishmasligi, ularning bu ishlarga nisbatan ikkinchi darajali deb qarashlaridadir. Biz bu qatorga barcha o‘qituvchilarni kiritmoqchi emasmiz. To‘g‘ri, maktablarda tajribali, ijodkor, tarbiyaviy tadbirlarni tez-tez uyushtirayotgan o‘qituvchilar ham bor, lekin ular ozchilikni tashkil etadi. Bu xulosalar natijasida biz o‘qituvchilarning sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga alohida e’tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz. Chunki, o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, jumladan dostonlarni o‘rganish faqat dars jarayonida emas, sinfdan tashqari o‘qish, tarbiyaviy ishlar jarayonida ham davom etishi zarur, deb hisoblaymiz.

Tajriba-sinov ishlarini davom ettirib, o'quvchilarga test savollari bilan murojaat qildik. Test savollarini tuzishda albatta darsliklarda "Go'ro'g'li" dostonining keltirilmaganligiga alohida e'tiborni qaratdik. Shu bois test savollarini tuzishda ko'proq o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga harakat qildik. Test so'rovnomalarida 4 B-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. (O'quvchilar soni 28 nafar tashkil etdi). Ўқувчиларга қуйидаги тест саволлари билан мурожаат қилдик:

1. Xalq og'zaki ijodi deganda nimani tushunasiz?

- a) milliy bayramlar;
- b) an'ana va urf-odatlar;
- v) ota-bobolarimizning bizga qoldirgan ma'naviy meroslarni;
- d) og'izdan og'izga o'tib kelayotgan ma'naviy qariyatlar

2. Xalq og'zaki ijodining qanday turlari mavjud ?

- a) dostonlar, qo'shiqlar
- b) maqol, topishmoq, tez aytishlar
- b) rivoyat va afsonalar
- g) barchasi to'g'ri

3. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan qahramonlar qatorini belgilang?

- a) Alpomish, Go'ro'g'li, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin, Amir Temur
- b) Doro, Shiroq, Chingizxon, Shayboniyxon
- v) Amir Temur, Chingizxon, Shayboniyxon
- g) Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Shayboniyxon

4. "Go'ro'g'li" dostonidagi G'ivot qanday hayvon nomi ?

- a) sigir
- b) it
- v) yo'lbars
- g) ot

5. Axloqli o‘quvchi sifatleri to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?

- a) shirinso‘zli, odobli, qo‘pol
- b) xushmuomala, adolatli, odobli
- v) odobli, chaqimchi, adolatli
- g) adolatli, dilozor, odobli

6. O‘qituvchingizni nima uchun yaxshi ko‘rasiz ?

- a) adolatli, mehribonligi uchun
- b) bilimli, shirinso‘zligi uchun
- v) axloqli, fidoiyligi uchun
- v) yuqoridagi barcha sifatlar egasi ekanligi uchun

7. Do‘stingizni qaysi fazilatlari sizga yoqadi

- a) odobi, shirinso‘zliligi
- b) sirlarimni saqlay olishi
- v) kiyinishi, kamtarligi
- g) yuqoridagi barcha sifatlar egasi

8. Qanday kishilar davrasida o‘zingizni noqulay sezasiz ?

- a) maqtanchoq, odobsiz
- b) axloqsiz, bachkana
- v) chaqimchi, maqtanchoq
- g) yuqoridagi barcha yomon sifatlar egasi menga yoqmaydi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yechgan test natijalarini tahlil qilganimizda, ularning ba’zi testlarga umuman noto‘g‘ri javob variantlarini belgilaganlarini guvohi bo‘ldik: 1, 2, 3, 4-savoldagi testlar shular jumlasidandir. Qolgan testlarga esa o‘quvchilar to‘g‘ri javob topa olganlar.

Demak, o‘quvchilar axloq, axloqiy sifatlar haqida tasvvurga egalar. Buni biz albatta ijobiy holat deb baholaymiz. Ammo bizningcha o‘quvchilarni yanada

ko‘proq milliy qadriyatlarimiz namunalari, ayniqsa, dostonlar bilan tanishtirish, shuningdek, 3-4 sinf o‘qish darsliklari mazmuniga “Go‘ro‘g‘li” dostonini kiritishni yoki o‘qituvchilarga sinfdan tashqari o‘qishda “Go‘ro‘g‘li” dostonini tavsiya etishlarini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2.2. Doston vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususyatlari

Mustaqil mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Bu borada o‘quvchilarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga jalb etish bilan ham o‘quv-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqatgina o‘quvchilarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya’ni ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizdagi insonparvarlikka yo‘g‘rilgan g‘oyalarni ularga targ‘ib etish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to‘ldirishdan iboratdir. Ayniqsa, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar natijasida o‘quvchilarning qobiliyat va layoqatlari yaqqol namoyon bo‘ladi, shuningdek, bolalarning dars mashg‘ulotlarida hosil bo‘lgan zerikish va toliqish holatlari bartaraf etiladi.

Xuddi dars mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda sinf rahbarining vazifasi mas’uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas’uliyat undan doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Sinf rahbari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o‘quvchilarning imkoniyatlari, bo‘sh vaqtini hisobga olishi;
- dars mashg‘ulotlarida olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi tadbir shakllarini tanlay olishi;
- tadbir aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;

-tadbir orqali o'quvchilarda jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlarni tarkib topishiga erishishi lozim.

O'quvchilar bilan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida o'quvchilarning barchasi ishtirok etishini ta'minlash.

O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.

1. Tadbirni amalga oshirish.
2. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.
3. Bosqichlarning har biri sinf rahbari tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Sinf rahbari o'quvchilarning sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, jumladan, "Go'ro'g'li" dostonidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan kengroq foydalanish imkoniyatlarini izlashi;
2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag'batlantirish.

3. Sinfdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir tashkilotchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, o'quvchilarda vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

“Go‘ro‘g‘li” dostoni asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoy hayotga tayyorlash, darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli adabiy kechalar, bellashuvlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. “Go‘ro‘g‘li” dostoni asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash shakllaridan biri (adabiy kechalar hisoblanadi. Bugungi kunda adabiy kechalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan birga o‘tkazish ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ga xizmat qiladigan vositalardan biridir. Sinfdan tashqari adabiy kechalarni uyushtirishda o‘quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi, ularda o‘zaro birdamlik, hamjihatlilik, bilim olishga yanada intilish kabi ijobiy sifatlarni shakllanishiga olib keladi.

Biz yuqoridagi fikrlarimizda ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda “Go‘ro‘g‘li” dostonining o‘rni va roli kattadir. Chunki, dostonida bugungi kunning eng dolzarb masalalari o‘z aksini topganki: ular ona-Vatanga sadoqat, ajdodlar xotirasiga cheksiz hurmat, ona tabiatni asrash, tinchlik uchun kurash, bag‘ri kenglik, inson erki va haq-huquqlari, iqtisodiy farovonlik qolaversa, biz yoshlarni har taraflama barkamol insonlar qilib tarbiyalash kabi masalalar o‘z yechimini topgan. Yuqorida aytganimizdek, “Go‘ro‘g‘li” dostonini mutoala qilgan va undagi g‘oyalarni anglagan mamlakatimiz yoshlarida ajdodlarimizga nisbatan hurmat, ehtirom, ularningizdoshlari bo‘lishga intilish kabi hohish istaklar paydo bo‘ladi. Ayniqsa, “Go‘ro‘g‘li” dostonini o‘rganishga bag‘ishlangan kechalar yoshlarning ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, uzoq tariximiz, ota–bobolarimizning mard va jasurligi, ularning oliyjanoblighi haqida boy bilimga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bu kabi kechalar vositasida yoshlarda Vatanga bo‘lgan yuksak e’tiqod, milliy g‘urur, o‘z manfaatlaridan vatan manfaatlarini ustun qo‘yish kabi oliy janob hislatlar shakllanadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida adabiy kechalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun avvalo, adabiy kechani qanday tayyorlash va o‘tkazish masalasini puxta o‘ylab, atroflicha rejalashtirib olish lozim.

Birinchidan, adabiy kechaning tarbiyaviy maqsadini aniqlash va shu maqsad asosida uning mazmunini belgilash zarur. Adabiy kecha uchun mavzu tanlanganda quyidagi meyorlarga amal qilinadi: mavzu keng qamrovli, yuksak axloqiy ideallarni o'zida mujassamlashtirgan va uning tarbiyaviy darajasi yuqori bo'lishi kerak. Mavzuning tarbiyaviylik darajasi yuqori bo'lishi zarurligining sababi shundaki, uning shakli va g'oyalari yoshlarda yuksak ma'naviy–axloqiy sifatlarni shakllantira olishi muhimdir. Ikkinchidan, adabiy kechaning tarbiyaviy ta'siri kechaning qanday o'tishidagina emas, ko'proq uni qanday tayyorlashda bo'ladi. Demak, buning uchun kechaga tayyorgarlik ishlari har taraflama puxta va rejaga amal qilgan holda tashkil etilishi kerak.

Bizningcha, adabiy kechalar quyidagi tartibda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- kechaning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;
- kechaning dasturini tuzish;
- kechaga mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;
- kecha o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;
- kechani muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

1. “Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida tashkil etilgan adabiy kechani har xil ko‘rgazmalar, o‘yinlar, viktorina, suratlar namoyishi, vatan haqida she‘rlar aytishuvi kabilar bilan boyitilishi har taraflama foydalidir. “Go‘ro‘g‘li” dostoni vositasida tashkil etiladigan adabiy kechalarni “Ajdodlar xotirasi muqaddas”, “Go‘ro‘g‘li vatanparvar shaxs”, ”Go‘ro‘g‘li xalqimizning sevimli qahramoni” kabi mavzularda o'tkazish mumkin. Demak tanlangan mavzu butun kecha davomida o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim.

Kechani qiziqarli o'tkazish uchun “savollarga tez javob qaytaring” o'yinidan ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar ikki guruhga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e'tibor beriladi. Bellashuvni birinchi bosqichda sinf, keyinchalik maktab miqyosida ham o'tkazish mumkin. Bunday kechani tayyorlash uchun kamida bir oy muddat talab qilinadi. Har ikkala tomon kecha o'tkaziladigan

kunni belgilab olgach, kecha tashkilotchilari uning shartlarini belgilab oladilar. Bellashuvda quyidagi savollar turkumidan foydalanish mumkin:

1. Xalq og‘zaki ijodi deganda nimani tushunasiz?
2. Doston nima?
3. Dostonni kimlar ijro etishadi?
4. Go‘ro‘g‘li qaysi xalq qahramoni ?
5. Go‘ro‘g‘li qaysi elning sultoni ?
6. Go‘ro‘g‘lining vatanparvalik g‘oyalariga misollar keltiring?
7. Chambil yurti kimning vatani?
8. Go‘ro‘g‘lining sevimli armug‘onini oti ?
9. Go‘ro‘g‘lining or-nomusli inson ekani misol keltiring?
10. Go‘ro‘g‘lining jangovor san’ati haqida ma’lumot bering?
11. Go‘ro‘g‘lining sevimli nabirasi kim?
12. Go‘ro‘g‘lining insonparvarlik g‘oyalariga misol keltiring?

Kabi savollardan foydalanish mumkin.

O‘quvchilar savol-javoblar bellashuvi bahonasida xalqimizning shonli tarixi, Go‘ro‘g‘li dostoni, undagi insonparvarlik g‘oyalar bilan tanishadilar. Bellashuv shartlaridan ko‘rinib turibdiki, vazifalar guruh a‘zolaridan astoydil tayyorgarlik ko‘rish, vatanimiz haqida ma’lumotga ega bo‘lish, savollarga javob berish uchun esa darslik va qo‘llanmalarga murojaat qilish, vatanga nisbatan e’tiqod, mehr-muhabbatni namoyon qilishlari talab qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda “Go‘ro‘g‘li” dostonini o‘rganishda, uning turkumlaridan parchalarni diqqat bilan o‘qib, diktant, bayon yozdirish orqali ham tashkil etish mumkin. Bayonni o‘zlashtirishda quyidagi izchillik saqlanmog‘i lozim:

Hikoyat hajmi (necha so‘zdan iboratligi) aniqlanadi va bu matnning mazkur sinf o‘quvchilariga mos kelishi aniqlanadi.

Mavzu doskaga yozib qo‘yiladi.

Matn bir marta sekin, ifodali o‘qiladi.

Ishtirok etuvchi kishilar, siymolar, joy nomlari, sonlar, jonivorlar, o'simliklar kabilar yoziladi. Raqamlar eslatiladi, matn ikkinchi marta o'qiladi.

Har bir xat boshi bo'yicha savol-javoblar tashkil etiladi.

Biz quyidagi namunaviy yozma ishni bayon misolida ko'rib o'taylik:

Bayon mavzusi:

“Go‘ro‘g‘li” dostonidagi “Jorxun Maston” turkumi.

1. Bayon uchun izchillik savollari:

a) Nurali qayerda tahsil oldi?

b) Nurali kim bilan do'stlashdi?

v) Nurali otasi Avazdan nima so'radi ?

g) do'st nima qildi, natijasichi?

ye) G'irotning maston bilan mardonovor kurashining natijasi qanday bo'ldi? .

“Jorxun Maston” turkumining bayoni: Go‘ro‘g‘lining nabirasi Nurali tahsili davomida yangi do'st orttiradi. Uning do'sti xoin edi. U Nuralini safarga chiqishga va bobosi Go‘ro‘g‘lining G'irotni so'rashni aytadi. G'irotni Chambil elining g'ururi va ori edi. Nuralining otasi Avaz G'irotni o'g'liga berishni hohlamaydi, bundan Nurali qattiq xafa bo'ladi. O'g'lining xafa bo'lganini ko'rgan Avaz G'irotni o'g'liga beradi. Safarga chiqqan ikki do'st ov qilishga qaror qilishadi, xavfni sezgan G'irotni va ov qushi sira egasiga bo'yin tovlashmaydi, chunki, jonivorlar xavfni sezgan edi. Shunday qilib Nuralining do'sti uni dushman tomonga olib boradi. Nurali buni sezib qoladi, ammo endi kech edi. Nurali dushman bilan jang qiladi, afsus dushman ko'pchilik edi. Dushman Chambil elining g'ururi va ori bo'lmish G'irotni asir olmoqchi bo'lishadi, chunki, Go‘ro‘g‘li G'irotsiz juda zaiflashib qolar edi. G'irotni qanot bog'lab, zanjirni uzib, osmonu-falakka ko'tariladi va Maston bilan samoda jang qiladi. Dostonda G'irotni jangovor ot ekanligi, mardligi juda chiroyli tasvirlangan. Yaralangan ot chambil eliga arang yetib boradi. Buni ko'rgan Avaz o'g'li Nuralini dushman qo'liga tushganini darrov payqaydi. Boshqa otni minib, o'g'lini qidirishga yolg'iz jo'naydi. Avaz yo'lda juda ko'p qiyinchiliklarni o'tkazadi. Shunday qilib Avaz

dushman bilan yakka, mardonovor jang qiladi. Dostonda Avaz va uning o'g'li o'rtasidagi mehr-muhabbatni jonli ifodalab berilgan. Doston voqealari shunday davom etadi.

O'qituvchi ushbu mustaqil ishni baholar ekan, o'quvchilarning bayonidagi har bir savolga bergan javoblari sifati va so'zlar hajmini e'tiborga oladi. Ushbu 120 so'zdan iborat matndan 110 dan ziyodini yozgan o'quvchiga "a'lo", 100 dan ziyodiga "yaxshi", 90 dan ziyodini yozgan o'quvchiga "qoniqarli", 50 dan ziyodini yozgan o'quvchiga "qoniqarsiz" baho qo'yish mumkin. Bayonlarni yozdirish va baholashda xulosaviy g'oyaning chiqarilishiga, so'zlarning asosiy matndan oshib ketmasligi, matndagilardan tashqari notanish so'zlarning kirib qolmasligiga e'tibor berish lozim. Har bir yozilgan bayon kelgusi mashg'ulotlarda muhokama qilinishi va baholanishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli tantanalarni, an'analarni, urf-odatlarini nishonlashda ishtirok etishlari va ushbu tadbirlarda ularga aniq vazifalar berilishi juda katta ahamiyatga ega. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan bunday tadbirlarga "Navro'z" umumxalq bayramini nishonlash, "Sumalak", Xotira va qadrlash kuni, hosil bayramini nishonlash, "Bilimlar kuni" ni o'tkazish va boshqalar kiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bunday bayramlarda vazifalar topshirilishi va ularning kattalar bilan bir qatorda turib bajarishlari, birinchidan, ularda o'zlariga ishonch-g'ururni tarbiyalasa, ikkinchidan, shu mavzu, tadbir to'g'risida yanada chuqurroq, kengroq tasavvurga, bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Uchinchidan esa, ulardagi kattalar o'rtasida o'zini tuta bilish, odob-axloq xislatlarini ham shakllantira boradi.

Kuzatishlarimiz tahlili shuni ko'rsatdiki, bunday tadbirlarni o'tkazishda reja va dastur asosidagi, jamoatchilik, mahalla, ota-onalar, ishlab chiqarish va korxonalar turli muassasalar hamkorligi yaxshi samara beradi. Darsdan tashqari tadbirlarni mavzuli va maqsadli holda, masalan, biror mutafakkirning, allomaning ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlab, o'tkazilishi bolalarning faolligini oshiradi, qiziqishlar doirasini kengaytiradi. Ana shulardan kelib chiqqan holda sinfdan va

maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishni takomillashtirish quyidagi shart-sharoitlarning ta'minlanishiga bog'liq:

Sinfdan tashqari ishlarning rejaları qat'iy choraklik, yillik asosida tuzib olinmog'i, maktab pedagogika kengashida muhokama etilishi, boshqa sinflar rejaları bilan uyg'unlashishi lozim. Ushbu tadbirlarni o'tkazishda maxsus joylar, jihozlar bilan ta'minlashda mahalla, ota-onalar, korxonalar, xalq ta'limining rahbar muassasalari va boshkalar jalb etilmog'i lozim.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish 3 bosqichdan - tayyorgarlik, tadbirni o'tkazish va yakuniy qismlardan iborat bo'lmog'i kerak. Har bir bosqichda ko'riladigan choralar, bajariladigan ishlar aniq rejalashtirilmog'i zarur. Tadbirlarni o'tkazishda turli o'quv-uslubiy ashyolar: jurnallar, kitoblar, darsliklar, uslubiy tavsiyanoma, plakatlar, o'qitishning texnik vositalari, gazetalar, tarqatma va ko'rgazmali materiallar va boshqalar lozim bo'ladi.

O'tkazilayotgan tadbirlar maktab o'quv jarayoniga, fanlar sohasiga, mavzular mazmuniga to'liq bo'ysundirilishi lozim. Sinfdan tashqari tadbirlarning ssenariylari loyihalari puxta ishlab chiqilmog'i kerak.

Ushbu tadbirlarni o'tkazishda har bir qatnashchi-ijrochi o'quvchilarning yosh, ruhiy, jismoniy xususiyatlari, maktabning mahalliy xususiyatlari hisobga olinmog'i lozim.

“Go'ro'g'li” dostonini o'rganishda noan'anaviy, ya'ni yangicha mazmun va shakldagi yozma ishlar, bayonlar, aqliy sayohatlar va boshqalar yuqori pedagogik mahsulli mashg'ulotlar hisoblanadi.

“Go'ro'g'li” dostonini o'rganishda o'quvchilarda faqat ma'naviy tushunchalarni shakllantirish emas, balki bolalarda tushunchalar va tasavvurlaridan asta-sekin muayyan ko'nikma va xislatlarni takomillashtirishga o'tish ham rejalashtirilmog'i lozim.

Dars va sinfdan tashqari tadbirlarning mazmunan aloqadorligiga va bir-birini to'ldirishiga erishish lozim.

Demak, adabiy kecha, ma'ruzalarni tayyorlash va o'tkazish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi: boshlang'ich

sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda adabiy kecha va ma'ruza mavzusini to'g'ri tanlash; shuningdek, musiqiy tanaffus, suratlar namoyishi, raqs kabilar o'quvchilarda axloqiy va estetik didni shakllantiradi; adabiy kechalarni to'g'ri tayyorlash va o'tkazish shaxs madaniy-ma'naviy rivojlanishi uchun, o'z-o'zini takomillashtirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bular o'z navbatida o'quvchilarning ma'naviyatini shakllanishiga olib keladi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy kadriyatlarni tiklash, milliy urf-odatlar, an'analardan foydalanish, ularni yanada rivojlantirish sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil davlatimizning jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun uning iqtisodiy qudratini yanada oshirish, XXI asr fan-texnika taraqqiyoti talablariga javob beraoladigan darajada qayta qurish zarur edi. Bunday dolzarb masalani amalga oshirish uchun avlodlarimizning boy ma'naviy merosini, jumladan, ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun yoshlar nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini ham mukammal bilishlari kerak. Chunki biz o'tmish tariximizni chuqur bilganimizdagina hozirgi davrimizning qadr-qimmatini yaxshi tushunamiz hamda kelajak uchun to'g'ri yo'nalishga ega bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: Bugun oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak.

Biz yashayotgan zamin qadim-qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo'lib, xalqimiz boy madaniy merosiga, yuksak qadriyatlariga ega xalqdir. Buyuk bobomiz Amir Temur, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq /ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Ahmad al-Farg'oni, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko'plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar.

Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o'rganishga, ulardan mustaqillik ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelganlar.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meroslarda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o'ziga xos yo'lini belgilashda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy istiqlol mafkurasini yaratish va uni rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Prezident I.A.Karimov: «Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishidan iborat uzviy, tabiiy sharoit deb hisoblaymiz» deb alohida ta'kidlagan edi³.

Olib borilgan tadqiqot natijasida qo'yidagi xulosaga keldik:

1. O'quvchilarda shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish mamlakatimizda ustuvor sohalardan biri ekan, uni maqsadga muvofiq holda bartaraf etish yo'llarini izlash pedagogika fanining dolzarb muammolaridandir.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda o'zbek xalq dostonlari, ayniqsa, "Go'ro'g'li" dostonining imkoniyatlari katta ekanligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

3. Mavjud holat tahlili shundan dalolat berdiki, boshlang'ich sinf O'qish darsliklariga doston epizodlaridan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. "Go'ro'g'li" dostoni asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'qituvchilar asosiy kuch bo'lib, ular o'zlarining ustida mustaqil va izchil ish olib borishlari lozimligi tadqiqotda kuzatildi.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.-326 b.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Go'ro'g'li" dostoni bilan tanishtirish va ularni ma'naviy–axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati katta ekanligi namoyon bo'ldi.

6. "Go'ro'g'li" dostoni asosida tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar natijasida o'quvchilarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan oliyjanoblik, tantilik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, vafodorlik kabi ijobiy sifatlar tarkib topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992. - 46 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.:“Ma'naviyat”,2008, 171b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O'zbekiston”, 2011, 430.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. – 29 b.
7. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq NMK, 1997. –61 b.
8. Abdullo Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent., 1994 . –237 bet.
9. Amir Temur o'g'itlari.- T.: Navro'z, 1992.- 63 b. (Amir Temur vasiyati.-T.: G'afur G'ulom, 1991.-4 b.
10. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.-T.:O'qituvchi,1995.-52b
11. Hasanboyeva O. Inoyatova M., Ne'matova A., Odobnoma. 2-sinf uchun darslik. T.: “O'qituvchi” 2012, 76 b. .
12. Hasanboyeva O., Xasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi.- T.: O'qituvchi, 1997.- 248 b
13. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar.-T.: Sharq, 2001.- 395 b.
14. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab, al-mufrad. T.,O'zbekiston. 1990,198 b.
15. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
16. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.- T.: Sharq, 2001.-160 b.
17. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. “Yangi yo'l roligraf serves”. 2011,- 235 b.

18. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.: O'zbekiston, 2000.- 80 b.
19. Munavvarov A. Pedagogika. Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 1996.- 200 b.
20. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 190 b.
21. Ochilov M.O., Ochilova N.M. O'qituvchi odobi.-T.: 1997.-136 b.
22. Ochilov M. Muallim-qalb me'mori. Saylanma.-T.:O'qituvchi,2001.-430b
23. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.- T.: O'qituvchi, 1995.- 207 b.
24. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi.- T.: 1997.- 230 b.
25. Tulenov J. Hayot falsafasi.- T.: O'qituvchi, 1993.- 319 b.
26. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.
27. Vatanni sevmok iymondandur.- T.: Adabiyot va san'at, 1995.- 64 b.
28. Xoliqova M., Ergasheva Sh., Odobnoma. 4-sinf uchun darslik. "Yangi yo'l roligraf serves". 2011,- 92 b.
29. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli.- T.: 1995.- 123 b.
30. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O'qituvchi, 1995.- 478 b.
31. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: O'qituvchi, 1999.- 478 b.
32. O'zbek xalq maqollari.- T.: Sharq, 2003.- 510b. (T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov)
33. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z.,T.: O'qish. 2-sinf uchun. "O'qituvchi". 2012, 170

www.ziynet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz